

Shoira Shams Lirikasida Lingvopoetik Resurslarning Ahamiyati

*Sadullayeva Sevvara*¹

Annotatsiya: Lingvopoetika- badiiy asarlarda qo'llanilgan lingvistik birliklarning badiiy – estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Maqolamizda esa aynan she'riy misralarni tilshunoslik nuqtayi nazaridam til fragmentlariga asoslanib, tahlil qilishga va lingvopoetik resurslar asosida yoritib berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Lingvopoetika, fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika, ekspressiv funktsiya.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga qaratilgan bir qancha kuzatishlar natijasida asosan lingvistik va lingvopoetik yo'nalishlar ajralib turadi. Shu o'rinda aynan poetika bn lingvistikani yaxlit birlik sifatida ko'rish borasida rus tilshunosi B.Jermuniskiy "Poetikaning vazifalari nomli" ishida A.Potebnaya asarlaridagi, garchi uning yaxlit kansepsiyasida e'tirozli o'rinlar ko'p bo'lsa –da, poetikani til haqidagi umumiy fan-lingvistika bilan yaqinlashtirishdan iborat metodi o'ta samarador ekanligini takidlaydi. B.Jermuniskiy shu o'rinda ushbu fikrlarni ta'kidlab o'tganlar "Hamonki, material so'z ekan, poetikaning sistemali tuzilishi asosga bizga lingvistika beradigan til faktlarining tasnifi qo'yilmog'i lozim. Badiiy vazifalarga bo'ysundirilgan bu faktlarning har biri shu tariqa poetik usulga aylanadi. Shunday qilib, til haqidagi fanning har bir bo'limiga nazariy poetikaning har bir bo'limi muvofiq bo'lishi kerak "Bunda u albatta, poetik fonetika, poetik morfologiya, poetik sintaksis kabilarni nazarda tutadi². Masalan, R.Yakobson "Lingvistika va poetika" nomli dasturiy ma'ruzasida hatto poetikani lingvistikaning tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin" tarzidagi tezisni ham ilgari surgan³. Badiiy asar tili borasida stilistika, poetika asarlarining atoqli tadqiqotchisi V.Vinogradov maskur masalaning har biriga aniqlik kiritishga e'tibor bergan. Masalan, "Stilistika. Poetik nutq nazariyasi. Poetika" nomli fundamental asarida, xususan, poetika haqida fikr yuritir ekan, adabiy-badiiy asar strukturasi o'rganishga ham lingvistik, ham estetik- stilistik, ham adabiyotshunoslik, ham boshqa san'atshunoslik yondashuvlari poetika doirasida birlashib ketishini ta'kidlaydi. Demakki, badiiy matn poetikasiga lingvistik yondashuv, ya'ni lingvopoetika boshqa yondashuvlarni aslo inkor etmaydi, balki ushbu yondashuvning yetakchiligini ko'rsatadi, xolos. Lingvopoetik tahlilda asosan yozuvchining yozgan fikrlari matndagi so'zlarning emotsionalligini ya'ni insonga ta'sir qilish darajasi o'rganiladi matnni yoki she'ni lingvopoetik tahlil qilish paytida faqat undagi so'zlargagina emas tovushlarga ham e'tibor qaratiladi. Ya'ni fonetik poetika yuzasidan yondashiladi. Badiiy asarlarda so'z uning asosiy quroli ya'ni uni ta'sirchanligini yuzaga keltirishdagi material demakdir. Bu material esa albatta matnni ham tashkil qiladi va o'sha asos hisoblanmish so'z har tomonlama tahlil qiliish uning ma'nosi ya'ni semasini o'rganish muhim. Bir paytning o'zida matndagi tovushlar uyg'unligi ham yuzaga kelishi ham kuzatiladi. Shu o'rinda lingvopoetik tahlil yuzasidan Shoira Shams ijodiga murojaat qilishni maqul topdim. Shoira Shams ijodiga Ilmiy nuqtayi nazardan yondashsak, uning lirik namunalarni fonetik poetika, leksik va sintaktik poetika yuzasidan ham tahlilga olamiz.

Layli, kel suhbat aylaylik ishq uza,

Yig'lasam ayb etma gar ko'ngling buza.

Ko'zlarim ashki ila tun qo'ynini,

¹ Urganch Davlat Universiteti Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

² Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. –Л.:Наука, 1977, с.15 .

³ Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. –М.: Высшая школа, 1981, с.169.



Har kecha to'ldirdi bir bir yulduza.

(Shoira Shams)

Yuqorida aytib o'tilgan to'rtlikda esa **a** tovushining uyg'unligi kuzatilgan qofiyada so'zlardagi bog'liqlik yuzaga kelgan har bir so'zning semasi o'rganamiz. Ashk so'zining lug'aviy ma'nosi aytilib, aynan bu yerda qaysi yo'sinda kelayotgani tahlilga olamiz. Nima uchun ishq haqida faqat Layli bilan suhbat qurish nazarda tutilmoqda shular yuzasidan muhokama o'rta tashlanishi mumkin. Balki shoira dardi og'irligi hatto Laylini ham ko'nglini buzishi ya'ni unikidan ham og'ir ekanligini nazarda tutmoqda shularning muvosi qo'yiladi.

Tanni tuproqdan yaratting, dilni gul atvoridan.

Bilmadim, **nedan** yaratting ruhi ozodingni, Ishq.

Shoira hamd -u sanolar **aylagay** mahshargacha,

Shod **etursan** jovidonda bori noshodingni, Ishq.

(Shoira Shams)

Bu she'rda shoira ishq tushunchasiga to'xtalib, uning qanday bunyod bo'lganligi haqida so'roqlar bilan she'rning emotsionalligini oshirishga harakat qiladi. Ta'sirchanlik yuzasidan oddiy matn yoki so'zdan ko'ra she'riy jumlar insonga tez yetib borishi va ta'sir qilishi yuqoriroq boladi va bu fan nuqtai nazaridan ham isbotlangan fakt demakdir.

Shod va **noshod** so'zlari esa zidlikni yuzaga keltirgan. Mahshar so'zining qo'llanishi esa oxirgi kunlarim jumlasidan ko'ra ta'sirchanroq bo'lishi uchun foydalanilgan.

Jovidon so'zining asl ma'nosi esa abadiylik demakdir u bilan sinonim bo'lgan jannat tushunchasini ham qollash mumkin va buni albbat qofiyaga mazmunga qarab belgilaymiz. Shoira she'rda qo'llagan etursan, nedan so'zlaridan esa **fonetik poetika** yuzaga kelgan chunki, **nedan** so'zi **nimadan** so'zining she'riy shaklda qisqarishga uchragan varianti, **etursan** so'zida esa **qilmoq** so'zi badiiy shakllantirilib she'riy qolipga solingan, **aylagay** so'zi ham aslini olib qaralsa qilmoq so'zi bilan barobar leksik poetika jihatidan o'rgansak bu so'zlar **sinonim** qilingan badiylashtirilgan holatda.

Matnda estetika va emotsionallik ham muhim ahamiyat kasb qilgani kabi uning ichki struktur tuzilishini ham o'rganishimiz lozim, nafaqat ichki tashqi tomondan tahlil qilish she'r semasini shakllanishida yordam beruvchi unsur demak.

Chunki, tilimizda nafaqat matn barcha nasriy va nazmiy bo'lgan tushunchalar o'rganilishi, tahlil qilinishi lozim va natijada ularning asl ma'nolari nima maqsadda qo'llanilganini bilib olamiz.

She'rni sintaktik poetika yuzasidan tahlil qilsak, inversiya hodisasiga duch kelamiz uning tahlili ham o'zgacha holatda yuzaga keladi ya'ni predikat (kesim) va word (ega)ning shakllanishi boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi.

Sen o'lib mangu topishding Qays **ila**,

Lek meni davron ayirdi jon **uza**.

Eltiging emdi xabibim **oldig'a**,

Ustuxonim itlarg'a **yeguza**.

So'rsa ul: "Kandog' edi miskin?", deya,

Aytingiz: "Yumdi qabog'in feruza".

Ketdi olamdin nihon qalbin olib,

Bo'lmagay emdi oni hech **turguza**.

Ruhi g'amda qolmasin shoira she'rining,

Nolasin mastur etingiz maxfuza.



Yuqoridagi jumlada so'zlar shunday mohirlik bilan qo'llanilganki, bilan so'zi ila shaklida badiiy uslub namunasini yaqqol ifodalay olgan. Nafaqat ila , uza, emdi, olamdin, so'rsa kabi bir nechta so'zlar qo'llanilgan. Qanday so'zining qandog' shaklida yoki itlarga so'zining itlarg'a shaklida yuzaga kelishi ilmiy qarashlar yuzasidan tahlil qilinsa tovush o'zgarishini yuzaga keltirganiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy o'zbek she'riyatida so'zlarning bunday qo'llanilishi, o'sha Navoiy zamonasini gavdalantirgan. Xuddi shu o'rida bir nechta so'zlar

Ila- bilan

Lek –lekin

Uza – uzra

Eltingiz – olib boring

Emdi – endi

Oldig'a – oldiga

Kabi so'zlarda tovushlar almashishi va qisqarishi holatlari kuzatilgan. Ayrim so'zlar esa mutlaqo o'zgacha holatda ularni lug'atlarga murojaat qilgan holda til tomonlama tadqiq qilish mumkin.

Mastur so'zining lug'aviy ma'nosi –aslida u so'z(mastura shaklida bo'lib arabcha berkitilgan, pardalangan, bokira) degan ma'noni ifodalab bu yerda esa shoira g'amini , nolasini pinhon saqladi uslubida qo'llanilgan. Shoira shu o'rinda shu qatorning o'zida sinonim qo'llashga ham ulgurgan demoqchimanki, mahfuza va mastur so'zlari pinhonlik tushunchasining turlicha nomlanishi demakdir. Miskin so'zining lug'aviy ma'nosi esa (arabcha –baxtsiz, bechora degan) tushunchani anglatib shoira bu yerda yorim so'rsa men baxtsizni qanday deb ayting u o'ldi deya demoqchi yana shu o'rinda Yumdi qabog'in feruza jumlasida metafora yani shoira ko'z ko'kligi va feruza tosh oxshashligi ham olingan nazarimda. Ustuxon tushunchasi esa suyak demakdir ko'pincha poetika jihatdan suyak emas ustuxon so'ziga murojaat qilishadi chunki, so'zlar emotsionalligi nazm uchun muhim unsur hisoblanadi. So'zlar qancha bo'yoqdorlikka ega bo'lsa she'r tuzulishi mukammaldek tuyuladi emotsiyaga boy boladi. Xulosa sifatida shoira ijodidagi she'rlarning o'rganilish obyekti tahlil yo'sini juda ko'p hali ochilmagan qirralardan iborat va ularni har jihatiga ilmiy yondashgan holatda tahlil qilish lozim har bir so'zning qo'llanilish doirasi qanday strukturasi, semantikasi va o'zi umuman, lingvopoetik jihatdan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

